Tleubergenov Raxat Shahibaevich	
THE ROLE OF ESG IN ADVANCING CORPORATE REFORMS IN UZBEKISTAN	1038
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA MARKETING ROLI ORQALI IQTISODIY SIYOSATGA TA'SIRI.....	1043
Egamberdiyev Muzaffar	
DAVLAT BUDJETI JARAYONINI OPTIMALLASHTIRISH YO'NALISHLARI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1046
Nosirov Islombek Xurram o'g'li	
O'ZBEKISTONDA JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'INING PROGRESSIV STAVKASINI JORIY ETISH MEKANIZMI	1052
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich, Xujamuradov Abrorbek Ro'zimurat o'g'li, Otabekov Otajon G'ayrat o'g'li, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KORXONANING MODDIY BAZASI	1060
Ozodova Shahzoda Ulug'bek qizi	
FINTECH-STARTAPLAR VA TIJORAT BANKLARI HAMKORLIGI: SINERGETIK INTEGRATSIYA VA INNOVATSION EKOTIZIM SHAKLLANISHI	1064
Normo'minov Temurbek Sheraliyevich	
DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARINING MEHNATIGA HAQ TO'LASHDA YANGI YAGONA TARIF SETKASINI JORIY ETISH MASALALARI	1069
Oqiljonov Azizjon Olimjon o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ	1074
Хасилова Висола Шоохоровна	
HARD WORK, INDEBTEDNESS AND HOPE: A SOCIO-ECONOMIC LOOK OF MODERN LABOR	1078
Rakhmatullayev Sarvar Nazar o'g'li, Abdukarimova Muborak Sharaf qizi, Madrakhimova R. G.	
KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI VA ULARNI HISOBGA OLISH.....	1085
Muradova Minavvar Izzatullayevna	
O'ZBEKISTONDA AKT SOHASINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI: SAMARADORLIKNI BAHOLASH VA RAQAMLASHTIRISHNING MUAMMOLARI	1089
Salibaev Xabibullo Negmatullaxanovich	



TIJORAT BANK KREDIT PORTFELINING SIFAT BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1094
G'aybullayev Odil Baxtiyarovich, Amanova Xurshida Inyatullaevna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA O'ZINI-O'ZI BAND QILISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI PASAYTIRISH MASALALARI.....	1099
Azimova Hulkar Egamberdiyevna	
СОКРАЩЕНИЕ БЕДНОСТИ КАК СОЦИАЛЬНАЯ СОСТАВЛЯЮЩАЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ РЕФОРМЫ УЗБЕКИСТАНА.....	1103
Амирджанова Ситора Суннат кизи	
IQTISODIY JARAYONLARNI BOSHQARISHDA OPTIMALLASHTIRISH MODELLARI VA ULARNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	1108
Ibragimov Nodir Nusriddinovich	
MARKETINGDAGI ISTE'MOLCHILAR MOTIVATSIYASIDA NAFLILIK NAZARIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1113
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
AHOLI ZICH HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ANDIJON VILOYAT MISOLIDA.....	1119
Karimov Abdusamat Ismonovich, Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna	
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA ISTE'MOLCHILAR XULQ-ATVORINING SAVDO HAJMIGA TA'SIRINING TAHLILI.....	1125
Haydarova Mohichehra Xurram qizi	
BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	1131
Haydarov Husanboy Ahmadjon o'g'li	
DAVLAT QARZINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: PANEL MA'LUMOTLAR TAHLILI.....	1135
Sanakulova B. R., Jamolov M.M.	
AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA HISOBOT SANASIDAN KEYINGI HODISALAR AUDITI.....	1142
Muydinov Erkin Djumaldinovich	
AUTSORSING FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI.....	1148
Xamidov Anis Choriyevich	
BIOCHEMICAL CHANGES IN THE BODY DURING THE PERIOD OF FATIGUE AND REST AFTER WORK FOR ATHLETES.....	1153
Yoldasheva Roila Jumaevna, Ruyobova Shakhlo Anvar qizi	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHGA OID XORIJIY MAMLAKATLARNING ILG'OR NAZARIYALARI VA YONDASHUVLARI.....	1159
Muradova Nazira Raximjanovna	
XORAZMDA IQTISODIY BARQARORLIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1165
Xudayorova Munira Omonboy qizi	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA INNOVATSION BUXGALTERIYA HISOBINI JORIY ETISH.....	1170
Mirzayev Komiljon Abdullajonovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGI MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SOLIQ SOLISH BAZASINI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI.....	1175
Jononmirzayeva Dilafruz Ilhom qizi	
ИЗБАВЛЕНИЕ ОТ ИНФЛЯЦИИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЦИФРОВЫХ МЕТОДОВ И МАТЕМАТИЧЕСКИХ МОДЕЛЕЙ В СФЕРЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.....	1180
Абидов А.А., Ахраров Б.С., Паязов М.М., Ахмедов А.М.	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH VA INNOVATSION BIZNES TASHABBUSLARINI QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI.....	1185
Karimova Mavjuda Boxodirovna	
INVESTITSIYA MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI YUQORI TEXNOLOGIYALI TARMOQLARNI RIVOJLANTIRISH VA IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH.....	1189
Raxmatova Nargizaxon A'zamxonovna	



O'ZBEKISTONDA ELEKTRON PULGA O'TISH ISTIQBOLLARI, KORRUPSIYA VA YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISHDA KUTILAYOTGAN SAMARADORLIK	1195
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KICHIK BIZNES TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI IQTISODIY XAVFSIZLIGI MASALALARI	1202
Anafiyayev Abdurashid Mamasidiqovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI HISOBINI AVTOMATLASHTIRISH	1206
Xusinov Ibragim Ismoilovich	
ЭВОЛЮЦИЯ ТОРГОВОЙ ПОЛИТИКИ ТУРЦИИ В КОНТЕКСТЕ ИНТЕГРАЦИИ В ГЛОБАЛЬНЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ЦЕПОЧКИ	1210
Солиев Абдумаджид Джабборович	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI DIREKTORINING MOLIVAVIY SAVODXONLIGI: NAZARIYA VA AMALIYOTI.....	1215
Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Boymuradov Normurod Abdusodikovich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA MOLIVAVIY HIMOLA XIZMATLARI KO'RSATISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1220
G'aniyeva Nozima Alijon qizi	
ОЦЕНКА ПОТЕНЦИАЛА КЛАСТЕРИЗАЦИИ КОКОНОПЕРЕРАБАТЫВАЮЩИХ ПРЕДПРИЯТИЙ НА ШЕЛКОВОМ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА.....	1225
Ходжиматов Равшанбек Расулжанович	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA ISH BILAN BANDLIK SHAKLLANISHINING XORIY TAJRIBASI	1231
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
TEMIR YO'L TRANSPORTI KORXONALARIDA MOLIVAVIY-IQTISODIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN KONTROLLING VOSITALARINI JORIY ETISH.....	1236
Kayumov Zafarbek Odil o'g'li	
BANK HR JARAYONLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	1243
D. Djabbarova	
MEHNAT BOZORIDA NORASMIY BANDLIKNI QISQARTIRISH MEXANIZMLARI	1247
Mirzakarimova Muyassarxon Muminovna	
IJTIMOY XIZMATLAR TIZIMIDA DAVLAT VA NODAVLAT SEKTORINING O'ZARO ALOQASI HAMDA XORIYIY TAJRIBA TAHLILI.....	1251
Berdiyeva Nafisa Qahramonovna	
ПРИМЕНЕНИЕ КОНТРОЛЛИНГА В ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА	1257
Каяумов Зафарбек Одил угли	
BILVOSITA SOLIQLAR HISOBINI TASHKIL ETISHDA SOLIQ NAZORATINING AHAMIYATI	1263
Djalilov Rahmonkul Hamidovich	
INVESTITSION FAOLIYATNING IQTISODIY MOHIYATI VA UNING SANOAT RIVOJLANISHIDAGI O'RNI	1268
Yuldoshev Sobir Fayzullayevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTINING TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA AHOLI DAROMADLARINING TAQSIMOT TAHLILI.....	1272
Bayxonov Baxodirjon Tursunbayevich	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING XORIY TAJRIBASI.....	1277
Raxmatova Shaxnoza Rustamovna, Ochilova Dilnoza Ismoil qizi	
ФОРМИРОВАНИЯ УСТОЙЧИВОЙ ЗАНЯТОСТИ В ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ	1283
Б.С. Разакова	
ZAMONAVIY TURISTIK KLASSTERLARNI BOSHQARISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1289
Azim Pulatov	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR BANDLIGINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI VA DAVLAT SIYOSATINING SAMARADORLIGI	1296
Qodirov Baxodirjon Shuhratovich	



O'ZBEKISTONDA YOSHLAR BANDLIGINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI VA DAVLAT SIYOSATINING SAMARADORLIGI

Qodirov Baxodirjon Shuhratovich

Kambag'allik va mehnat bozori tadqiqotlari instituti doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston sharoitida yoshlar bandligini ta'minlash va uni takomillashtirish yo'nalishlari tahlil qilingan. Tadqiqotda mamlakatda yoshlarning mehnat salohiyatini ro'yobga chiqarish bo'yicha amalga oshirilayotgan davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, uning amaliy samaradorligi hamda mavjud tizimli muammolar ilmiy asosda o'rganilgan. Natijalar yoshlar bandligini oshirish, mehnat bozorida raqobatbardoshlikni kuchaytirish va innovasion yondashuvlarni joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: yoshlar bandligi, mehnat bozori, davlat siyosati, mehnat salohiyati, globallashuv, innovasion yondashuv, xalqaro tajriba.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the strategies aimed at ensuring and improving youth employment in the context of Uzbekistan. The study examines the key directions of state policy focused on developing the labor potential of young people, evaluates its effectiveness, and identifies persistent systemic challenges. The findings highlight the importance of strengthening youth employment, enhancing competitiveness in the labor market, and adopting innovative approaches in employment policy.

Key words: youth employment, labor market, state policy, labor potential, globalization, innovative approach, international experience.

Аннотация. В статье проведён комплексный анализ направлений обеспечения занятости молодежи в условиях Узбекистана и совершенствования соответствующих механизмов. В исследовании раскрыты ключевые аспекты государственной политики, направленной на реализацию трудового потенциала молодежи, оценена её эффективность и выявлены существующие проблемы. Полученные результаты подтверждают необходимость дальнейшего повышения занятости молодежи и внедрения инновационных подходов в сфере трудовых отношений.

Ключевые слова: занятость молодежи, рынок труда, государственная политика, трудовой потенциал, глобализация, инновационный подход, международный опыт.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida yoshlar bandligini ta'minlash, ularning mehnat salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish va iqtisodiy faolligini oshirish masalalari so'nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Mamlakat aholisi tarkibida yoshlarning ulushi yuqori ekanligi, ushbu demografik ustunlikdan samarali foydalanish zaruratini kuchaytiradi. Shuning uchun mehnat bozorida raqobatbardosh, innovasion fikrlovchi va zamonaviy kasbiy ko'nikmalarga ega kadrlarni tayyorlash dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda.

2024-yilgi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda aholining 60 foizdan ortig'ini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etadi hamda har yili mehnat bozoriga 500–600 ming nafar yangi ishchi kuchi kirib keladi. Bunday demografik dinamikalar yoshlar bandligi masalasini mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida hal qiluvchi omilga aylantirmoqda.



O'zbekiston Prezidenti tomonidan qabul qilingan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi yoshlarning mehnat salohiyatini oshirish, ularni yangi kasblarga o'qitish, tadbirkorlikka jalb etish va raqamli iqtisodiyot sharoitida zamonaviy mehnat ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratadi. Mazkur strategiya doirasida yoshlarni mehnat bozoriga tayyorlashda ta'lim tizimi, kasb-hunar o'qitish markazlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining faol ishtiroki ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Shuningdek, "Yoshlar siyosati to'g'risida"gi Qonun yoshlarning iqtisodiy faolligini oshirish, ularni mehnat bozorida qo'llab-quvvatlashning mustahkam huquqiy asosini yaratadi.

So'nggi yillarda mazkur siyosiy yondashuvlar samarasida ishsizlik darajasi izchil kamayib bormoqda. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2024-yil 2-noyabr kuni e'lon qilingan ma'lumotlariga ko'ra, umumiy ishsizlik darajasi 2023-yilga nisbatan 0,6 foiz bandga pasaygan. Yoshlar ishsizligining kamayishiga mehnat yarmakalari, "Yoshlar daftari", "Temir daftar" kabi ijtimoiy mexanizmlarning samaradorligi muhim ta'sir ko'rsatgan. 2025-yilda yoshlar bandligini yanada oshirishga qaratilgan yangi bosqichdagi chora-tadbirlar — yangi ish o'rinlari yaratish, tadbirkorlikka o'qitish, imtiyozli kreditlar va grant dasturlarini kengaytirish — bu boradagi natijalarni yanada mustahkamlashi kutilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yoshlar bandligi masalasi bo'yicha xalqaro va milliy ilmiy adabiyotlarda keng qamrovli yondashuvlar shakllangan bo'lib, ular mehnat bozori jarayonlarini chuqur tahlil qilishga xizmat qiladi. Xalqaro Mehnat Tashkilotining "Global Employment Trends for Youth – 2024" hisobotida yoshlar ishsizligining tarkibiy sabablari, mahalliy boshqaruv organlarining roli va davlat siyosatining samaradorligini oshirishga qaratilgan mexanizmlar atroflicha yoritiladi. OECDning "Youth Employment and Local Governance" tadqiqotida esa yoshlarni ishga joylashtirishda hududiy mehnat markazlari, ta'lim tizimi va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikning ustuvorligi ta'kidlanib, dual ta'lim modelining yuqori samaradorligi ilmiy asosda isbotlanadi.

Evropa Komissiyasi tomonidan amalga oshirilgan qiyosiy tadqiqotlarda Germaniya, Fransiya va Polsha davlatlarida mahalliy bandlik siyosati yuqori natijalar bergani, ishlab chiqarishga yo'naltirilgan amaliyot tizimi yoshlar bandligiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatgani qayd etiladi. Jahon Bankining "Uzbekistan Economy: Development and Opportunities" hisobotida O'zbekistonda yoshlar bandligini kengaytirish uchun biznes muhiti barqarorligini kuchaytirish, investitsiyalar oqimini oshirish va startap ekotizimini rivojlantirish muhim omil sifatida ta'riflanadi.

Shuningdek, Lucas, Claxton va Spencer tomonidan OECD uchun tayyorlangan ilmiy tadqiqotda ta'lim tizimida ijodiy fikrlash, moslashuvchan ko'nikmalar va vakolatga asoslangan yondashuvni kuchaytirish yoshlarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishning muhim sharti sifatida ko'rsatiladi. Teshabaeva va Nishonboev tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda marketing salohiyatini baholashda yoshlar bandligi bilan bog'liq bozor talablarini chuqur o'rganish zarurligi ta'kidlanadi. Olimova va Teshabaeva esa innovasion jarayonlarning faollashuvi iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirib, yoshlar uchun yangi ish o'rinlari yaratishda muhim omil bo'lishini ilmiy asoslaydi.

Umuman olganda, ushbu adabiyotlar O'zbekiston uchun yoshlar bandligini rivojlantirish siyosatini xalqaro tajribaga tayangan holda yanada takomillashtirish muhimligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda O'zbekistonda yoshlar bandligini takomillashtirishga qaratilgan davlat siyosati, uning samaradorligi hamda mavjud muammolarni aniqlash uchun kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Avvalo, Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT), OECD, Evropa Komissiyasi va Jahon Banki kabi xalqaro tashkilotlarning hisobotlari hamda mahalliy statistik ma'lumotlar asosida qiyosiy tahlil amalga oshirildi. Mamlakatda 2020–2024-yillar davomida yoshlar bandligi dinamikasini baholash uchun statistik tahlil, mavjud mexanizmlarning samaradorligini aniqlashda esa normativ-huquqiy hujjatlar tahlilidan foydalanildi.

Shuningdek, xalqaro tajribalarni o'rganish jarayonida kontent tahlili va ilmiy adabiyotlar sharhi usullari qo'llandi. Mahalla tizimi, kasb-hunar ta'limi va yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amaliy natijalar esa aniqlangan indikatorlar asosida tahlil qilindi.

Metodologik yondashuvning bunday integrativ va tizimli shakli yoshlar bandligi tizimidagi real holatni chuqur baholash, mavjud imkoniyatlarni aniqlash hamda uni yanada rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar shakllantirish imkonini berdi.


TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi besh yil davomida yoshlar bandligi darajasi barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etib, 2020-yildagi 83,2 foiz ko'rsatkich 2024-yilda 87,4 foiz darajagacha oshgan. Shu bilan birga, yoshlar orasidagi



ishsizlik darajasi ham izchil kamaygan bo'lib, 2020-yilda 10,4 foizni tashkil etgan ko'rsatkich 2024-yilda 8,5 foizgacha pasaygan. Ushbu dinamikalar davlat tomonidan olib borilayotgan bandlik siyosati, ta'lim va kasb-hunar dasturlarining modernizatsiyasi hamda yoshlarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining amaliy samaradorligini yaqqol tasdiqlaydi (1-rasm).

O'zbekistonda yoshlar bandligi dinamikasi (2020–2024-yillar), foiz hisobida



Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi

1-rasm. 2020–2024-yillar davomida O'zbekistonda 16–30 yoshdagi yoshlarning bandligi va ishsizligi dinamikasi


Ushbu grafik davlat tomonidan amalga oshirilayotgan bandlik siyosati, yoshlar uchun yangi ish o'rinlarini yaratish, kasb-hunar ta'limi tizimini takomillashtirish hamda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarning amaliy natija berayotganini ko'rsatadi. Mazkur jarayon natijasida yoshlarning mehnat bozoriga integratsiyalashuvi yaxshilanib, ularning iqtisodiy faolligi oshmoqda. Yoshlar bandligini kuchaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar kompleks yondashuvni ifodalaydi va bu strategiya uch asosiy komponentga tayanadi. Birinchi komponent — davlat siyosati yo'nalishida "Yoshlar daftari" tizimini joriy etish, 126 trillion so'mlik keng qamrovli dasturlarni amalga oshirish, yosh tadbirkorlarga kredit va grantlar ajratish kabi tashabbuslar davlatning yoshlar bandligiga bo'lgan e'tiborini kuchaytirayotganini aks ettiradi. Ikkinchi komponent — o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatida mahalla yoshlar yetakchilari tizimini joriy etish, yoshlar portali orqali qo'llab-quvvatlash ko'rsatish, yoshlar biznes inkubatorlarini tashkil etish kabi mexanizmlar yoshlarning muammolarini samarali hal etishga xizmat qilmoqda. Uchinchi komponent — xalqaro hamkorlik yo'nalishida Xalqaro Mehnat Tashkiloti, BMT Taraqqiyot Dasturi va OECD tajribasidan keng foydalanilayotgani, yoshlar bandligi bo'yicha ilg'or tajribalarni mamlakat amaliyotiga tatbiq etish imkonini bermoqda.

Bundan tashqari, ta'lim sifati va kasbiy malakani oshirish borasida ham sezilarli natijalar kuzatilmoqda. Kasb-hunar ta'limi tizimi mehnat bozorining zamonaviy talablariga mos ravishda modernizatsiya qilinib, texnik yo'nalishlarda yangi o'quv markazlari tashkil etilmoqda. Hukumat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik mustahkamlanib, ayniqsa yosh mutaxassislarning amaliyotga jalb etilishiga qaratilgan samarali mexanizmlar joriy etilmoqda. Yoshlar bandligida gender tengligini ta'minlash ham muhim yo'nalish bo'lib, ayollar uchun masofaviy ish imkoniyatlari, tadbirkorlik dasturlari va kasbiy o'qitish loyihalari kengaytirilmoqda. Yoshlarning kasbiy malakasini oshirish, ayol-qizlarning iqtisodiy faolligini qo'llab-quvvatlash va barcha hududlarda teng imkoniyatlar yaratish mamlakatning demografik salohiyatidan yanada samarali foydalanishga xizmat qilmoqda.

Ushbu kompleks yondashuv natijasida ishsizlik darajasining 6,8 foizdan 5,8 foizgacha kamaygani, 876 ming kishining ish bilan ta'minlangani, shuningdek 1,9 million yoshning xorijda mehnat faoliyati bilan band bo'lgani e'tiborga molik natijalardir. Diagramma (2-rasm) shuni yaqqol ko'rsatadiki, yoshlar bandligini oshirishda davlat, mahalla va xalqaro hamkorlikning uyg'unlashgan harakati muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu yo'nalishda olib borilayotgan izchil siyosat mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.



Yoshlar Bandligini Oshirish Strategiyasi



2-rasm. Ushbu diagramma O'zbekistonda yoshlar bandligini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan kompleks yondashuvni ifodalaydi.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) tomonidan tayyorlangan “Yoshlar bandligida o'zini o'zi boshqarish organlarining roli: Yevropa va Markaziy Osiyodagi misollar” nomli hisobotda qayd etilishicha, yoshlar bandligini ta'minlashda mahalliy boshqaruv organlarining faolligi ijtimoiy inklyuziya, iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy omillardan biri sanaladi. O'zbekiston tajribasida ham mahalla institutlari orqali yoshlar bandligini qo'llab-quvvatlash samarali mexanizm sifatida shakllanib bormoqda. BMT Taraqqiyot Dasturining “Yoshlar bandligi uchun mahalliy o'zini o'zi boshqarish imkoniyatlarini kengaytirish” loyihasi natijalari O'zbekistondagi mahallalarning yoshlarni ish bilan ta'minlash borasidagi tashabbuslari ilg'or amaliyot sifatida e'tirof etilganligini ko'rsatadi. Bu jarayonda davlat organlari bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish institutlari o'rtasidagi hamkorlik alohida ahamiyat kasb etadi. Mahalla tizimi yoshlar ishsizligini kamaytirishda ijtimoiy diagnostika o'tkazish, mahalliy mehnat bozori ehtiyojlarini aniqlash va individual yondashuv asosida bandlik dasturlarini amalga oshirish orqali faol ishtirok etmoqda. Masalan, 2024-yilda “Yoshlar daftari”ga kiritilgan 400 mingdan ortiq yoshning 60 foizdan ziyodi doimiy ish o'rinlariga joylashtirilgan yoki o'z biznesini boshlashi uchun moddiy ko'mak olgan bo'lib, bu natija mahalliy boshqaruv institutlarining ijtimoiy-iqtisodiy faolligini kuchaytirganini ko'rsatadi.

OECD tomonidan e'lon qilingan “Yoshlar bandligi va o'zini o'zi boshqarish organlari: imkoniyatlar va muammolar” tadqiqotida yoshlarning mehnat bozoriga integratsiyasida tarmoqlararo hamkorlik, kasbiy moslashuvchanlik va innovasion yondashuvlarning ahamiyati ta'kidlanadi. O'zbekiston bu borada xalqaro tajribalarni faol joriy qilmoqda. Kasb-hunar ta'limi tizimining yangilanishi, “Kasbga yo'naltirish markazlari”, “Startup” dasturlari va raqamli platformalarning rivoji yoshlar bandligi salohiyatini sezilarli oshirmoqda. Ta'lim vazirligining 2022-yilda e'lon qilingan hisobotida 250 mingdan ortiq yoshlarning kasb-hunar va malaka oshirish dasturlariga jalb etilgani qayd etilgan bo'lib, bu mehnat bozoriga kirib kelayotgan yoshlar raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda. Jahon Bankining 2023-yilgi “O'zbekiston iqtisodiyoti: rivojlanish va imkoniyatlar” hisobotida yoshlar bandligini kengaytirish uchun xususiy sektorni rivojlantirish, investitsion muhitni yaxshilash, mikromoliyalashtirish va startaplarni qo'llab-quvvatlash zarurligi ta'kidlanadi. Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2022–2025-yillar davomida yosh tadbirkorlar tomonidan 15 mingdan ortiq yangi xo'jalik subyektlari tashkil etilgan. Bu jarayon nafaqat bandlikni oshiradi, balki yoshlarning iqtisodiy mustaqilligini kuchaytirishga ham xizmat qiladi.

Shu bilan birga, yoshlar bandligi faqat iqtisodiy omillar bilan belgilanmaydi. Ijtimoiy va institusional omillar, kasb tanlashdagi psixologik tayyorgarlik, ta'lim tizimining mehnat bozoriga moslashuvchanligi kabi jihatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. TALIS xalqaro tadqiqotlari o'qituvchilarning kasbiy salohiyati va ta'lim muassasalarida ijodiy fikrlashni rivojlantirish yoshlarni kelajakdagi mehnat faoliyatiga tayyorlashda motorn omillar ekanini ko'rsatadi.

Yoshlar bandligining xalqaro tajribasiga nazar tashlanadigan bo'lsa, OECD va Evropa Komissiyasi hisobotlarida yoshlarni ish bilan ta'minlash siyosati samaradorligi hududiy boshqaruvning qudratligi, mahalliy



tashabbuslarning faolligi va ta'lim tizimi bilan ishlab chiqarish sektori o'rtasidagi integratsiya darajasi bilan bog'liqligi ta'kidlanadi. Evropa Komissiyasining "O'z-o'zini boshqarish organlarida yoshlarni ish bilan ta'minlash siyosatining samaradorligi: qiyosiy tadqiqot" tahliliy hisobotida Germaniya, Fransiya va Polsha tajribasi o'rganilgan bo'lib, dual ta'lim modeli va mahalliy mehnat markazlari tomonidan olib boriladigan monitoring tizimlari yuqori samaradorlikni ta'minlayotgani qayd etilgan. O'zbekiston ham ushbu tajribalarni milliy sharoitga moslashtirgan holda "Kasbga yo'naltirish" tizimini bosqichma-bosqich joriy etmoqda. Ta'lim vazirligining 2022-yilgi hisobotida kasb-hunar ta'limi islohotlari natijasida 350 dan ortiq yangi kasbiy standartlar ishlab chiqilgani, bu esa ta'lim tizimining mehnat bozori ehtiyojlariga moslashuvchanligini oshirgani keltiriladi. TALIS tadqiqotlari ham o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish va ularni real ishlab chiqarish sharoitiga tayyorlash yoshlar ishsizligini kamaytiruvchi eng muhim omil ekanini tasdiqlaydi. Lucas, Claxton va Spencerning OECD uchun tayyorlagan "Progression in Student Creativity in School" tadqiqotida ham ijodiy fikrlashni o'quv jarayoniga integratsiya qilish mehnat bozoriga tayyorlikni sezilarli oshirishi ilmiy asosda isbotlangan.

Yoshlar bandligida gender tengligi masalasi ham alohida ahamiyat kasb etadi. XMT ma'lumotlariga ko'ra, dunyo miqyosida yosh ayollar ishsizligi yosh erkaklarnikiga nisbatan 1,3 barobar yuqori bo'lsa-da, O'zbekistonda bu tafovutni qisqartirish maqsadida "Ayollar daftari" tizimi orqali keng ko'lamli qo'llab-quvvatlash choralari ko'rilmogda. 2023-yilda 150 mingdan ortiq ayollar ishga joylashtirilgan yoki kasbga o'qitilgan bo'lib, bu tashabbuslar ayollar iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Xalqaro tashkilotlar bahosiga ko'ra, O'zbekistonning yoshlar bandligi siyosati mintaqada ijtimoiy-iqtisodiy natijadorligi bilan ajralib turadi. XMT, BMTTD va OECD hisobotlarida O'zbekiston modeli — "mahalla asosida yoshlar bandligini boshqarish" — samarali mexanizm sifatida e'tirof etilgan. Ushbu modelda markaziy davlat dasturlari va mahalla tizimining faolati uyg'unlashgan bo'lib, yoshlarni qo'llab-quvvatlashning kompleks mexanizmi yaratildi. So'nggi yillarda O'zbekistonda "Yoshlar daftari", "Temir daftar" tizimlari, "Yoshlar mehnat markazlari" orqali yoshlarning kasbiy tayyorgarligini oshirish, ularni amaliy kasblarga yo'naltirish hamda tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. 2023-yilda "Yoshlar daftari" doirasida 300 mingdan ortiq yosh turli bandlik dasturlariga jalb etilgan. Xalqaro tajriba ko'rsatadiki, ta'lim tizimi va mehnat bozori integratsiyasi, faol bandlik siyosati hamda xususiy sektor ishtiroki yoshlar bandligini oshirishning eng muhim omillaridir. OECD mamlakatlarida keng qo'llaniladigan dual ta'lim tizimi talabalarning o'qish jarayonidayoq ishlab chiqarishda amaliyot o'tashini ta'minlaydi va bitiruvchilar ishga joylashish darajasi 80–90 foizgacha yetadi. O'zbekiston ham "Kasbiy ta'lim konsepsiyasi" orqali amaliyotga yo'naltirilgan o'quv dasturlarini kengaytirib, mazkur yo'nalishda sezilarli natijalarga erishmoqda.

Davlat siyosatini baholashda yoshlar bandligi bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. 2024-yilda "Har bir yoshga — bir kasb" tamoyili asosida 350 mingdan ortiq yoshlar qisqa muddatli kasb-hunar kurslariga jalb etilib, ularning 65 foizi ishga joylashtirilgan. "Yoshlar — kelajagimiz" jamg'armasi tomonidan esa 2,1 trillion so'mlik kreditlar ajratilib, yoshlar tadbirkorligi qo'llab-quvvatlangan. Ushbu natijalar yoshlar iqtisodiy faolligining oshishiga xizmat qilgan bo'lsa-da, mintaqaviy darajada monitoring tizimini kuchaytirish, mablag'larning maqsadli sarflanishini ta'minlash va kasbga yo'naltirish jarayonlarining sifatini oshirish bo'yicha takomillashtirishga muhtoj jihatlar ham mavjud.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda yoshlar bandligini ta'minlash va ishsizlik darajasini kamaytirish masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. So'nggi yillarda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar, jumladan, kasb-hunar ta'limini modernizatsiya qilish, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish, shuningdek, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari orqali yoshlarni ish bilan ta'minlashga qaratilgan mexanizmlarning joriy etilishi ijobiy natijalar bermoqda. Statistik ma'lumotlar 2020–2024-yillar davomida yoshlar bandligi darajasi ortganini, ishsizlik darajasi esa bosqichma-bosqich kamayganini ko'rsatmoqda. Ushbu holat mamlakatda olib borilayotgan kompleks islohotlarning amaliy samaradorligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, tahlillar yoshlar bandligi tizimida takomillashtirishni talab qiluvchi qator jihatlar mavjudligini ham ko'rsatmoqda. Xususan, mehnat bozori ehtiyojlari bilan ta'lim tizimi o'rtasidagi nomuvofiqlik, ayrim hududlarda mehnat resurslari ortiqchiligi va norasmiy bandlikning nisbatan yuqori darajada saqlanib qolayotgani mazkur sohada tizimli islohotlarning izchil davom ettirilishini zarur etadi.

Umuman olganda, O'zbekiston hukumati tomonidan olib borilayotgan kompleks siyosat yoshlarning mehnat bozoridagi faolligini oshirish, ularni raqamli iqtisodiyot, tadbirkorlik va innovasion faoliyatga keng jalb etish orqali yangi rivojlanish bosqichiga olib chiqmoqda. Ta'lim, tadbirkorlik va raqamli transformasiyaning uyg'unlashuvi mamlakatning demografik salohiyatidan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Yoshlar bandligini ta'minlashga qaratilgan davlat siyosati bosqichma-bosqich ijobiy natijalar bermoqda. Shu bilan birga, global raqobat sharoitida ushbu jarayonni yanada takomillashtirish, raqamli iqtisodiyot imkoniyatlarini



keng joriy etish, mehnat bozori prognozlarini aniq shakllantirish va ta'lim tizimini zamonaviy talablar asosida moslashtirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT). "Global Employment Trends for Youth – 2024: Europe and Central Asia." ILO, 2024.
2. Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD). "Yoshlar bandligi va o'zini o'zi boshqarish organlari: Imkoniyatlar va muammolar."
3. Evropa Komissiyasi, Bandlik, ijtimoiy masalalar va inklyuzivlik bo'yicha bosh boshqarma. "O'z-o'zini boshqarish organlarida yoshlarni ish bilan ta'minlash siyosatining samaradorligi: Qiyosiy tadqiqot."
4. Alimov, B. B. (2022). Risk Management in Investment Projects. International Journal of Marketing and Technology, 12(8), 2249–1058.
5. Teshabaeva, O. N., & Nishonboev, D. E. (2021). Korxonalarning marketing salohiyatini baholash omillari. Scientific Progress, 2(7), 657–661.
6. Olimova, N., & Teshabaeva, O. (2022). O'zbekistonda innovatsion jarayonlarni takomillashtirish orqali korxonalar raqobatdoshligini oshirish masalalari. Scientific Progress, 3(3), 276–282.
7. Lucas, B., Claxton, G., & Spencer, E. (2013). Progression in Student Creativity in School: First Steps Towards New Forms of Formative Assessment. OECD Education Working Papers, No. 86. World Bank. (2023). Uzbekistan Economy: Development and Opportunities.
8. TALIS – The OECD Teaching and Learning International Survey.
9. www.oecd.org/education/talis



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>